

MA'NAVIYAT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY VAZIFALARI

Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich

Farg'ona davlat universiteti talabalarni turar joyi bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i

Akbarova E'zozaxon Maxamatshukurovna

Farg'ona davlat universiteti fizika-texnika fakulteti tyutori.

Gmail: oerkaboyev@gmail.com

Bugungi kunda ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Istiqlol tufayli ma'naviy hayotimizda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda bu sohaga ulkan va uzluksiz e'tibor qaratib kelinmoqda. Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi o'sib, ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga poydevor yaratyapti.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Albatta, "ma'naviyat" tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. Umuman, o'zida juda chuqur va keng qamrovli ma'no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma'rifatli inson o'zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e'tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta'rif va tavsiflar berishi tabiiy. Shuning uchun ham bu masala bo'yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir-biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan, ularni har qaysi muallifning o'ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o'rinlidir".

Ma'naviyat tushunchasi mazmun va mohiyati bilan qadrlidir. Chunki bu tushuncha Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg'ariylar davridan boshlab o'zining uzoq tarixiy o'tmishiga ega. U Najmiddin Kubro, Imom at-Termiziy, Imom al-Buxoriylar davrida o'z sayqalini topdi. Atama sifatida shakllanishiga islom falsafasi va tasavvuf katta ta'sir ko'rsatdi. Islom falsafasi va tasavvuf ta'sirida oila ma'naviyati, bola tarbiyasi va axloqiy tarbiya masalalari, komil inson, insonning jamiyat va tabiat uyg'unligi kabi vazifalar kelib chiqdi.

Abdurahim Erkayevning fikricha: "Kundalik hayotda «ma'naviyat» ko'pincha insonning va jamiyatning moddiy ishlab chiqarishga bevosita oid bo'lmagan aqliy faoliyati mahsulotlariga (ma'naviy madaniyatiga) hamda axloqiy, diniy qarashlarga va iymon e'tiqod amaliyotiga nisbatan ishlatiladi".

Inson ma'naviy poydevori albatta oiladan boshlanadi, shu sababdan oila tarbiyasi ma'naviy kamolot poydevori hisoblanadi. Bunda oila tarbiyasi birinchi o'rinda turadi. Bolani tarbiyalashda oiladagi muhit pokiza bo'lishi lozim, chunki bola ota-onadan namuna oladi. Ota-ona oilada albatta bolaga ibrat va o'rnak bo'lishi shart.

Ma'naviyatni yanada teranroq anglash uchun uning quyidagi ijtimoiy vazifalarini ko'rsatib o'tish joiz:

- a) millatni muhofaza qilish;
- b) o'tmishga, bugunga va kelajakka oid hodisalarga baho berish;
- v) alohida shaxslarni muayyan hayotda o'z o'rnini egallashga undash;

g) millatni taraqqiyotga, alohida shaxsni takomillashishga rag`batlantirish;
d) insonning o`z shaxsiyati bilan ayniyatda yashashini, inson tabiatini rivojlanishi, takomillashishini ta`minlash;

ye) kishilar, ijtimoiy guruhlar o`rtasidagi munosabatlarni axloqiy va huquqiy me`yorlar orqali tartibga solish;

j) insonning tabiat va jamiyat bilan uyg`unligini ta`minlash.

Ma`naviyat tushunchasining mohiyatini va ijtimoiy vazifalarini tushunib yetish muhim ahamiyatga ega. Amaliy faoliyatimizni, ayniqsa, fan, adabiyot va san`atni, xalq ta`limi va madaniyatning boshqa sohalarini rivojlantirish ko`p jihatdan ma`naviyat haqidagi bilimlarimizga bog`liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир [Матн] : Маъруза / Шавкат Миромонович Мирзиёев. – Тошкент : Tasvir, 2021. – 36 бет :

2. Мирзиёев Ш. М. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do`stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir [Матн] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi

3. O.Erkaboyev, O. G`aniyev. [Globallashuv sharoitida yoshlarning “ommaviy madaniyat” tahdidiga qarshi kurashi](#). international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25

4. O.Erkaboyev, I. Mamatqulov. Ma`naviy tahdid - yosh avlod kelajagiga tahdid. international conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. 2022.12.25

5. O.Erkaboyev, G.Qurbonova. [Ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlik yoshlarning aqliy va jismoniy kamoloti kushandasi](#). PEDAGOG, 2023. 62-63

6. O.Erkaboyev, D.Tursunova. [Aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish](#) . PEDAGOG, 2023. 59-61

7.Erkaboyev.O.M. [Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati](#). Ta`lim fidoylari-2022. № 3. С. 138-141

8. O.M. Эркабоев. [Жисмоний тарбия ва Чакирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанлари бўйича тажриба дастурини тузиш тамойиллари](#). Та`лим фидойилари-2022. № 13. С. 4-8

9. O. Эркабоев. [Физическое воспитание и спорт в допризывной подготовке](#). Та`лим фидойилари, 2022. 70-74

10. O.Erkaboyev. [O'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik integratsiyasi](#). Та`лим фидойилари, 2022. 73-79

11. O.M. Эркабоев. [Наука в системе высших школ Республики Узбекистан](#). Архивариус. с 24-27

12. E.O. Muhammadjonovich. [Determination of the physical status of secondary school students through sociological research](#). Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5

13. EO Muxammadjonovich, ME Abdujannonovich . [YOSHLAR ONGIDA MILLIY MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIYAT VA QADRIYATLARNING O'RN](#)I. TADQI QOTLAR, 2023/4/4. 40-43